



SEMIOTIKA TIL BELGILARI SISTEMASI EKANLIGI

Azima Absalomova

*Nizomiy nomidagi O'zMPU 1-bosqich
magistranti*

Аннотация

Ushbu maqolada semiotikadagi asosiy tushuncha lisoniy belgi ekanligi, u muayyan matnlardagi va muomaladagi shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo'lishi, undagi belgi o'zi shartli ravishda aloqador bo'lgan narsa haqida muayyan jamiyat vakillariga xabar berishi, belgilarning eng muhim va murakkab tizimi tilshunoslik o'rganadigan til ekanligi, belgi tizimlari tabiiy (inson tili, xayvonlarning belgi tizimlari) va sun'iy (yasama, sun'iy tillar, dasturlash tili, fizika, kimyo, matematika va mantiqdagi ramzlar tizimi) bo'lishi, belgilar va belgi tizimlarini o'rganishda sintaktika, semantika va pragmatika o'zaro ajratilishi, sintaktika nutq zanjirida yoki muayyan matnda ketma-ket, izchil qo'llanadigan til birliklari o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlarni o'rganishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: semiotika, semantika, priznaklar, informatorlar, lingvistika, morfologiya, Lomonosov.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что основным понятием в семиотике является языковой знак, который проявляется как диалектическое единство формы и содержания в определённых текстах и коммуникации. Знак условно связан с определённым предметом и сообщает о нём представителям данного общества. Наиболее важной и сложной системой знаков является язык, изучаемый лингвистикой. Системы знаков бывают естественными (человеческий язык, системы знаков животных) и искусственными (искусственные языки, языки программирования, системы символов в физике, химии, математике и логике). При изучении знаков и знаковых систем различают синтактику, семантику и прагматику. Синтактика исследует своеобразные отношения между языковыми единицами, которые последовательно и систематически используются в речевой цепи или в конкретном тексте.

Ключевые слова: семиотика, семантика, признаки, информаторы, лингвистика, морфология, Ломоносов.

Abstract: This article states that the fundamental concept in semiotics is the linguistic sign, which appears as a dialectical unity of form and content in certain texts and communication. A sign is conditionally connected with a particular object and conveys information about it to members of a given society. The most important and

complex system of signs is language, studied by linguistics. Sign systems can be natural (human language, animal sign systems) and artificial (constructed languages, programming languages, systems of symbols in physics, chemistry, mathematics, and logic). In the study of signs and sign systems, syntax, semantics, and pragmatics are distinguished. Syntax examines the specific relations between linguistic units that are used sequentially and systematically in a speech chain or in a particular text.

Keywords: semiotics, semantics, signs, informants, linguistics, morphology, Lomonosov.

Semiotika (yunon tilidan olingan bo‘lib, semiotikos — belgilar haqidagi ta’limot), semiologiya:

1) axborot, ma’lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o‘rganadigan fan sohasi;

2) u yoki bu obyektning bir ma’nodagi Semiotika nuqtai nazaridan o‘rganiladigan tizimidir.

Lingvistik Semiotika dagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo‘lib, u muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Belgi o‘zi shartli ravishda aloqador bo‘lgan narsa haqida muayyan jamiyat vakillariga xabar beradi. Belgilarning eng muhim va murakkab tizimi [tilshunoslik](#) o‘rganadigan tildir. Belgi tizimlari tabiiy (inson tili, xayvonlarning belgi tizimlari) va sun‘iy (yasama, sun‘iy tillar, dasturlash tili, fizika, kimyo, matematika va mantiqdagi ramzlar tizimi) bo‘ladi. Belgilar va belgi tizimlarini o‘rganishda sintaktika, semantika va pragmatika o‘zaro ajratiladi. Sintaktika nutq zanjirida yoki muayyan matnda ketma-ket, izchil qo‘llanadigan til birliklari o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarni o‘rganadi. Semantika belgilarning ular ifodalaydigan ob‘yektlar bilan munosabatini o‘rganadi. Pragmatika esa belgilar, ular ifodalaydigan ob‘yektlar hamda belgilar tizimidan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi.

Jadid adabiyotida obraz va g‘oya uyg‘unligi kuchli bo‘lgani bois, bu obrazlar zamonaviy o‘quvchi ongida ham chuqur iz qoldiradi. Ular nafaqat o‘z davrining badiiy qahramonlari, balkixalq ma’naviyatining shakllanishiga xizmat qilgan timsollardir. Aynan shuboisjadidadabiyotini o‘rganish — bu nafaqat adabiy-estetik jarayonni tahlil qilish, balki o‘z tariximiz, milliy g‘oyamiz va ma’naviy taraqqiyotimiz ildizlarini anglash yo‘lidagi muhimqadamlardanbiridir. Shunday qilib, jadidchilik g‘oyalari asosida yaratilgan adabiy obrazlar – bu milliy uyg‘onishning badiiy ko‘zgusi, xalq tafakkurining yangilanish bosqichining ajralmas qismidir.

Semiotika ikki tilga bo‘linadi:

1. Tabiiy belgilar (priznaklar);
2. Sun‘iy belgilar(informatorlar);

Tabiiy belgilar priznaklar -bular telefonlari SMS yoki qo‘ng‘iroq qilinganda eshitiladigan ovozlar misol bo‘la oladi.Yana yomg‘ir yoki qor yog‘ishidan oldin osmonda paydo bo‘ladigan bulutlar ham tabiiy belgilar hisoblanadi. Sun‘iy belgilar informatorlar -bu belgilar emas, balki grammatik so‘zlar hisoblanadi. Masalan, so‘z, gaplar, so‘z birikmalari kiradi. Ular belgilar asosida emas grammatik qonun qoidalar asosida yaratiladi.

Tilshunoslik yoki lingvistika tillarni o'rganuvchi fandır. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo'lib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi (grammatikasi) va uning ma'nosi (semantikasini) o'rganadi. Grammatika — morfologiya (so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi), sintaksis (so'zlarning iboralarga va gaplarga biriktrilish qoidalari) va fonologiya (tilni abstrakt tovushlar yordamida o'rganish) fanlarini qamrab oladi. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish kiradi.

Lomonosovning „Rus grammatikasi“ asarida rus adabiy tilining fonetik, morfologik, qisman sintaktik xususiyatlari birinchi marta izchil bayon qilindi. Uyg'onish davrida antik dunyo madaniy merosiga bo'lgan qiziqish klassik filologiyaning rivojlanishiga ham turtki bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, yangi, zamonaviy yevropa tillarini mantiqiy asosda o'rganish boshlandi. Qiyosiy metodika va tarixiylik tamoyilining qo'llanishi qiyosiytarixiy tilshunoslikka asos soldiki, bu soha tillarning qarindoshligini o'rganishda, tillarning genealogii: tasniflash ishlab chiqishda, qarindosh tillarning, tillar oilalarining, asosan, hindevropa tillari oilasining tarixiy taraqqiyotini o'rganishda, tillarning qadimgi holatini qayta tiklashda va boshqalarda muvaffaqiyatlarga erishdi.

Pirs tomonidan semiotika 3 turga bo'linadi:

- Ikonalar;
- Indekalar;
- Simvollar.

Ikonalar - bu o'xshatishga asoslangan belgi,

Indekalar - sabab- oqibat belgilar, masalan: tutun, olov,

Simvollar - kelishuvga asoslangan belgilar (masalan: til belgilari).

Xulosa.

Semiotika nafaqat tilshunoslikda, balki **madaniyatshunoslik, adabiyot, san'at, falsafa, informatika va kommunikatsiya nazariyasida** ham muhim ahamiyatga ega. U belgilar orqali inson tafakkuri va jamiyatdagi muloqot qanday shakllanishini tushuntiradi. Shuningdek, semiotika turli fanlar o'rtasida ko'prik vazifasini bajarib, axborot almashinuvi va ma'no yaratish jarayonlarini umumiy nazariy asosda birlashtiradi.

Semiotika — belgilar va ularning tizimlari orqali inson tafakkuri, muloqoti va madaniyatini anglashga yordam beradigan fan. U tilni eng murakkab belgi tizimi sifatida ko'rib, sintaktika, semantika va pragmatika orqali belgilarni chuqur tahlil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saussure, F. de. Course in General Linguistics (Umumiy tilshunoslik kursi). — Til belgilar tizimi va semiologiya nazariyasi.
2. Peirce, C. S. Collected Papers on Semiotics. — Semiotikaning ikonalar, indekslar va simvollar bo'yicha tasnifi.
3. Eco, U. A Theory of Semiotics. — Semiotika va madaniyatshunoslikdagi qo'llanilishi.
4. Lomonosov, M. V. Rossiyskaya grammatika (Rus grammatikasi). — Rus adabiy tilining fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlari.

5. Lotman, Yu. M. Semiotics of Culture and Art. — Madaniyat va adabiyotdagi semiotik tahlil.

6. Jadid adabiyoti bo'yicha ilmiy maqolalar — Milliy uyg'onish davri adabiy obrazlari va g'oyalari haqida.

7. Tilshunoslikka kirish (O'zbek tilshunosligi bo'yicha o'quv qo'llanma). — Nazariy va amaliy tilshunoslik, grammatika bo'limlari: morfologiya, sintaksis, fonologiya.